



O‘zbekistonda tarixiy obidalar va madaniy turizm

Sirdaryo viloyati Xovos tumani

Madaniyat va turizm bo‘limi

Xovosobod madaniyat markazi rahbari

Tuychiyev Furqat To‘ra o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda tarixiy obidalar va madaniy turizm haqida yoritilgan bo‘lib, unda yurtimizdagи madaniy yodgorliklar, qadimiy shaharlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: adabiy meros, moziy, tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar, ajdodlar.

Tarix - voqealar guvohi. Moziydan darak beradigan manbalarning qay biri sahih, qay biri yolg‘onligini ajratish ham quduq tubidan ignani topishdek gap ekanligi hech birimizga sir emas. Tarix labirinti aro haqiqatni tanlay bilish zukko kitobxonning ixtiyorida qoladi albatta. Shu o‘rinda yurtimiz tarixi va madaniy merosi haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e’tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarda Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo’qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug’ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan bunyod etilgan obidalar o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta’mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Toptalgan tariximiz, qutlug’ qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta’mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abu Mansur al-Moturudiyy, Ahmad al-Farg’oniyy, Burhoniddin al-Marg’inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug’ allomalarimizning sha’nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko’tardi.

Hech kimga sir emaski, O‘zbekiston o‘zining boy madaniy va tarixiy merosi, betakror me’morchiligi va san’atiga ega. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Urganch, Termiz, Qoraqalpog‘istonning qadimiy tarixiy obidalari O‘zbekistondagi tarixiy va ma’rifiy turizmning asosiy poydevori hisoblanadi. O‘zbekiston madaniyati,



Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik an’analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekiston hududida ko‘plab me’moriy yodgorliklar, qadimiy qal’a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo‘lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi ob’ektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.



Turizm va Madaniy meros vazirligi — O‘zbekistondagi vazirlilik. 2021-yil 6-aprelda Shavkat Mirziyoyev farmoniga binoan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi negizida tashkil etilgan. Shunga muvofiq: turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi lavozimi tugatilib, uning o‘rniga turizm va sport vaziri lavozimi ta’sis etilgan. Prezident tomonidan 2021-yil 6-aprel kuni „Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida“gi qaror qabul qilindi. Turizm va sport vaziri etib Aziz Abduhakimov tayinlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq tarixiy yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me’moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991-yildan Xivadagi Ichanol’da qo‘riqxonasidagi, 1993-yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning “Umumjahon madaniy merosi” ro’yxatiga kiritildi. Mamlakatimiz hududida mavjud



bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yhatiga kiritilgan. Ajodolarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan mimg-minglab qo'lyozmalargacha bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta me'rosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu-ulomolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy bilimlarning, ayniqsa islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarimizning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixon bag'ishlaydi.

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda. Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari Reprezentativ ro'yxatiga 4 ta me'moriy majmua - Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990-yil), Buxoroning tarixiy markazi (1993-yil), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" (2001-yil), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016-yil) va 9 nomoddiy meros ob'ektlari kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning "Tarix millatning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rganuvchi fandir" degan fikrlari qadimgi tariximizdagi soliq tizimlarini o'quvchiga o'rgatish, bugungi O'zbekiston taraqqiyoti uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.



Xulosa qilib aytganda, olis va yaqin tariximiz shuni ko'rsatadiki, xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: TDPU, 2004.
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz